



O'ZBEKISTONDA KAMBAG'ALLIKNI KAMAYTIRISHDA XITOIY
TAJRIBASIDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI

Xolmatova Gavharshodbegim Muhammadi qizi

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti 1-kurs magistrant gavharshodbegim.x.1107@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xitoy-Markaziy Osiyo munosabatlarining asosiy ishtirokchisi bo'lgan O'zbekistonda Xitoyning kambag'allikni bartaraf etish strategiyasi imkoniyatlaridan samarali foydalanish istiqbollari o'rganiladi. Ta'kidlash lozimki, Xitoy maxsus institutlar, moliyalashtirish va innovatsion mexanizmlar orqali kambag'allikka qarshi faol kurash olib bordi. Ma'lumki, O'zbekiston Xitoy tajribasidan foydalangan holda, 2030-yilga borib kambag'allikni 7 foizga qisqartirish bo'yicha qo'shma tadqiqot loyihasini moliyalashtirdi. Ikki hamkor davlat 2023-yilda O'zbekistonning "Yangi taraqqiyot strategiyasi"ga muvofiq iqtisodiy barqarorlikni o'rnatish va kambag'allikni bartaraf etish bo'yicha 2023-2027-yillarga mo'ljallangan strategik hamkorlikni rivojlantirish dasturini qabul qildi. Maqolada Xitoyning kambag'allikni qisqartirishdagi muvaffaqiyatli tajribalardan faol foydalangan holda O'zbekistonda ushbu muammoni bartaraf etishdagi sa'y-harakatlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: XKP, BMT, ShHT, Shavkat Mirziyoyev, Si Zinpin, Markaziy Osiyo, kambag'allik.

Abstract: This article examines the prospects of effective use of China's poverty alleviation strategy in Uzbekistan, which is the main participant in China-Central Asia relations. It should be noted that China actively fought against poverty through special institutions, financing and innovative mechanisms. It is known that Uzbekistan financed a joint research project to reduce poverty by 7% by 2030, using China's experience. In 2023, the two partner countries adopted the strategic cooperation development program for 2023-2027 on establishing economic stability and eliminating poverty in accordance with the "New Development Strategy" of Uzbekistan. The article describes the efforts to eliminate this problem in Uzbekistan, actively using China's successful experiences in reducing poverty.

Key words: CCP, UN, SCO, Shavkat Mirziyoyev, Xi Jinping, Central Asia, poverty.

Аннотация: В данной статье рассматриваются перспективы эффективного использования китайской стратегии борьбы с бедностью в Узбекистане, который является основным участником отношений Китая и Центральной Азии. Следует отметить, что Китай активно боролся с бедностью посредством специальных институтов, финансирования и инновационных механизмов. Известно, что Узбекистан профинансировал совместный исследовательский проект по сокращению бедности на 7% к 2030 году, используя опыт Китая. В 2023 году две страны-партнера приняли Программу развития стратегического сотрудничества на 2023-2027 годы по установлению экономической стабильности и ликвидации бедности в соответствии с «Новой стратегией развития» Узбекистана. В статье описаны усилия по устранению этой проблемы в Узбекистане, активно использующие успешный опыт Китая в сокращении бедности.



Ключевые слова: КПК, ООН, ШОС, Шавкат Мирзиёев, Си Цзиньпин, Центральная Азия, бедность.

Hozirgi davrda kambag'allik global muammodir va unga qarshi kurashish esa tarixiy muammodir. Insoniyat kambag'allikka qarshi kurashni hech qachon to'xtatmagan. Kambag'allik va u bilan bog'liq muammolar, jumladan, ochlik, kasalliklar va ijtimoiy mojarolar odamlarning yaxshi hayotga intilishlariga to'sqinlik qiladi, shuning uchun kambag'allikni bartaraf etish haligacha o'z ahamiyatini yo'qomayotgan jiddiy muammolardan biridir. Xitoy xalqi kambag'allikka qarshi kurashish va iqtisodiy farovonlikka erishishning uzoq tarixiga ega. 1978-yilda o'n birinchi XKP Markaziy Qo'mitasi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish va kambag'allikni bartaraf etishga qaratilgan islohotlarni boshladi. Shu davrdan buyon Xitoy hukumati oziq-ovqat va kiyim-kechak kabi asosiy ehtiyojlarga e'tibor qaratib, kambag'allikni yumshatish uchun faol harakatlar olib bormoqda. Jumladan, kambag'allikni bartaraf etish bo'yicha maxsus institutlar tashkil etildi, kambag'al hududlar aniqlandi, ma'lum miqdorda mablag'lar ajratildi, kambag'allik standartlari o'zgartirildi va kambag'allikni bartaraf etishning innovatsion mexanizmlari ishlab chiqildi. Ushbu harakatlar qishloq infratuzilmasini yaxshilash, davlat xizmatlarini samarali amalga oshirish va kam ta'minlangan guruhlarga daromadlarni oshirishga yordam berishni o'z ichiga olgan kompleks vazifalari orqali amalga oshirildi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2030-yilgacha Barqaror rivojlanish kun tartibining birinchi maqsadi 2030-yilgacha o'ta qashshoqlikka barham berish edi. BMTning 2030-yilgacha barqaror rivojlanish maqsadiga javob berish uchun Xitoy kambag'allikning geografik taqsimotini, uning sabablari va harakatlantiruvchi kuchlarini, kambag'allikni kamaytirish yo'llari va oqibatlarini, shuningdek, uni qisqartirish bo'yicha muvaffaqiyatli tajribalardan foydalanmoqda. Xitoyning ushbu samarali tajribalaridan foydalangan holda O'zbekiston hukumati ham bir qator muhim vazifalarni amalga oshirmoqda.

Ta'kidlash lozimki, Ipak yo'li iqtisodiy kamari bo'ylab joylashgan Markaziy Osiyo mintaqasining yuragi bo'lmish O'zbekiston 20 yildan ortiq vaqt davomida Xitoy-Markaziy Osiyo munosabatlarida asosiy ishtirokchi bo'lib kelmoqda. 1992-yilda o'rnatilgan ikki davlat o'rtasidagi mustahkam aloqalar bir qancha diplomatik marralarga erishgan. Binobarin, O'zbekiston Shanxay Hamkorlik Tashkilotiga 2001-yilda a'zo bo'lgan bo'lsa, 2005-yilga kelib "Xitoy-O'zbekiston do'stlik va hamkorlik shartnomasi"ni imzolagan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov rahnamoligida O'zbekiston Xitoy tajribasiga 1996-yilda o'tkazilgan "O'tish iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy siyosat" seminari va 1997-yilda "Markaziy Osiyoning jahon iqtisodiyotining rivojlanishi va integratsiyalashuvi istiqbollari" konferensiyasi kabi qo'shma konferensiyalar orqali qiziqish bildirdi. 2012-yil O'zbekiston va Xitoy o'rtasida "Strategik sheriklik o'rnatish to'g'risida"gi bitimning imzolanishi ikki davlat o'rtasidagi hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqdi. 2013-yilda boshlangan "Bir kamar va yo'l" tashabbusi esa O'zbekistonni Xitoyning mintaqadagi muhim strategik geosiyosiy hamkoriga aylantirdi.



2016-yildan boshlab esa ikki tomonlama aloqalar yanada kuchayib, Xitoyning iqtisodiy ambitsiyalari O'zbekiston bilan uyg'unlashdi. Shuningdek, O'zbekistonda Xitoy fuqarolari uchun sayohat va turizmni osonlashtirish uchun vizasiz kunlar oshirildi. Shavkat Mirziyoyev tomonidan Xitoy davlat boshqaruvi modeliga e'tibor yanada kuchaytirila boshlandi. Xitoy 2016-yildan buyon O'zbekistonning eng yirik savdo sherigi bo'lib, o'zaro tovar ayirboshlash hajmi 2019-yilda 7,2 milliard AQSh dollarini tashkil etdi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2019-yil yakuni bo'yicha O'zbekistonga xorijiy investitsiyalarning eng katta ulushi quyidagi davlatlarga to'g'ri kelgan:

1. Xitoy – 26,2%
2. Rossiya – 10,6%
3. Turkiya – 5,2%
4. Germaniya – 3,3%
5. Shveysariya – 2,9%.¹

2020-yil 2-oktabr kuni esa Turizmni rivojlantirish instituti Xitoy tomonidan moliyalashtirilgan O'zbekiston-Xitoy hukumatlararo qo'shma ilmiy-tadqiqot loyihasini amalga oshirish haqida e'lon qildi. Bu loyiha kambag'allik, gender tengsizligi va bandlikka e'tibor bergan holda O'zbekistonda kambag'allikni qanday kamaytirish mumkinligini o'rganishga qaratilgan.²

Bundan tashqari, Shavkat Mirziyoyev va Si Szinpin o'rtasida 2022-yil fevral oyida Pekinda bo'lib o'tgan uchrashuvda "Kambag'allikka qarshi kurashda Xitoy tajribasini o'rganish va joriy etish bo'yicha qo'shma tadbirlarni amalga oshirish to'g'risida"gi kelishuvga erishilgan edi. O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish bo'yicha qonunlarning amalga oshirilishi Xitoy tajribasi bilan yaqqol o'xshashligini ko'rsatadi. Masalan, 2022-yil yanvar holatiga ko'ra, O'zbekiston hukumati har bir kishi uchun oyiga 498 ming so'm (46 AQSH dollari) yoki kuniga 16 600 so'm (1,53 AQSh dollari) miqdorida milliy qashshoqlik chegarasini o'rnatdi, bu esa o'rtacha daromadi past mamlakatlar toifasiga kiradi. Ushbu yondashuv muayyan mamlakatdagi vaziyatni aniqroq aks ettirishni ta'minlashi va davlatning belgilangan muddatda o'z maqsadlariga erishishiga yordam berishi mumkin. Shu bilan birga, O'zbekistonda "temir daftar" deb nomlanuvchi kambag'allik chegarasidan past bo'lgan uy xo'jaliklari uchun ma'lumotlar bazasini yaratish bo'yicha hukumat tomonidan loyiha ishlab chiqildi va bu ma'lumotlar bazasiga kirgan oilalar uchun ishga joylashtirish va boshqa ko'mak turlari yuzasidan yordam so'rash imkoniyati yaratildi. O'zbekistonlik ekspertlarning fikricha, Xitoy yondashuvini qo'llash O'zbekistonga kambag'allikka qarshi kurashda o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga muvaffaqiyatli erishish imkonini beradi. Ammo shuni ta'kidlash kerakki, Xitoyning kambag'allikni bartaraf etish bo'yicha harakatlar mustahkam hokimiyat ierarxiyasi bo'lmish Kommunistik partiya tomonidan ta'minlangan. O'zbekistonda bu vazifani mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari, ya'ni mahallalar bajaradi.³

¹ China briefing team, "China-Uzbekistan: Bilateral Trade and Future Outlook," China Briefing post, (September 22, 2021) <https://www.china-briefing.com/news/china-uzbekistan-bilateral-trade-and-future-outlook/>

² Umida H., (2020). Uzbekistan Teams Up with China on Poverty Reduction. <https://thediplomat.com/2020/10/uzbekistan-teams-up-with-china-on-poverty-reduction/>

³ Temur U., (2023). Intersecting Policies: Exploring the Domestic Foundations of Uzbekistan's Changing Stance on China. OSCE Academy in Bishkek, pp. 30-31.



Statistik ma'lumotlarga ko'ra, aholi turmush darajasini oshirishga qaratilgan siyosat tufayli mamlakatimizda 2017-yildan buyon kambag'allik ikki barobarga kamaydi va bu ko'rsatgich 2030-yilgacha 7 foizga tushirish reja qilingan.⁴

2023-yilda O'zbekiston va Xitoy o'rtasida 2023-2027-yillarga mo'ljallangan strategik sheriklikni rivojlantirish dasturi qabul qilindi. Ushbu dastur ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarda muhim qadam bo'lib, har tomonlama hamkorlikni chuqurlashtirishga qaratilgan. Dasturning asosiy jihatlariga e'tibor qaratigan bo'lsak, hamkorlik doirasida o'zaro qo'llab-quvvatlash ikki davlat uchun ham asosiy ustuvor vazifa qilib belgilandi. Jumladan, Xitoy O'zbekistonni milliy suverenitet, mustaqillik va hududiy yaxlitlikni himoya qilishda va uning milliy sharoitiga mos rivojlanish yo'lidan borishda qat'iy qo'llab-quvvatlashini bildirdi. Shuningdek, iqtisodiy, savdo va sarmoyaviy hamkorlikni yanada kengaytirish va aloqalarni rivojlantirish ushbu dasturning muhim vazifalardan biri qilib belgilangan. Ushbu dastur doirasida umumiy qiymati 40 milliard dollardan ortiq bo'lgan savdo shartnomalari va sarmoyaviy bitimlarni amalga oshirish rejalashtirilgan. Binobarin, O'zbekistonda kambag'allikni bartaraf etishda Xitoy tajribasidan foydalanish hamda bu bo'yicha kichik qo'mita tuzish to'g'risidagi kelishuvga ham erishilgan.

Shu jumladan, O'zbekistonda kambag'allikni kamaytirishda Xitoy tajribasidan foydalanishga oid yana bir qancha tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2023-yil O'zbekistonda 20 nafar hokim yordamchilari Xitoyga tajriba o'rganish uchun yuborildi va ular 2 hafta davomida "Xitoy tajribasi asosida kambag'allikni qisqartirish" mavzusida mutaxassislardan ta'lim olishdi. Bu borada Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi hamda Xitoy davlatining Kambag'allikni qisqartirish xalqaro markazi o'rtasida anglashuv memorandumini imzolangan bo'lib, unga muvofiq 2023-yil so'ngigacha qadar 200 nafar hokim yordamchilari Xitoy tajribasini o'rganishi ko'zda tutilgan. Xususan, Prezident Shavkat Mirziyoyev mamlakatda kambag'allik darajasi ortib borayotganini ochiq tan olib, mamlakatda 12-15 foiz yoki 4-5 million kishi kambag'allik darajasida yashashini ta'kidladilar.⁵

O'zbekistonda kambag'allikni kamaytirishdagi yana bir muhim qadam bu Xitoyning ilg'or tajribasi asosida qashshoqlikni qisqartirishga oid 18 banddan iborat loyihaning tayyorlanganligi bo'ldi. Kambag'allikni kamaytirish bo'yicha milliy harakatning yangi bosqichida Xitoy tajribasidan kelib chiqib, har bir viloyatda kambag'allikni bartaraf etish bo'yicha alohida dastur amalga oshirilishi belgilandi. Bundan tashqari, kambag'allik darajasi yuqori bo'lgan hududlarda yo'l-transport, elektr energiyasi, aloqa, turizm infratuzilmasini yaxshilash, kichik va o'rta shaharlarni rivojlantirish, mahallalarni sanoatlashtirishga alohida e'tibor qaratilib, bu bo'yicha kerakli vazifalar belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" to'g'risidagi farmoniga muvofiq iqtisodiy barqarorlikka erishish va kambag'allikni kamaytirishga oid bir qancha vazifalar belgilandi. Jumladan, ushbu strategiyaning 85-maqсадiga ko'ra, mamlakatda yangi ish o'rinlari yaratish, aholi daromadlarini oshirish va shu orqali 2026-yil yakuniga qadar

⁴ President.uz, "O'zbekiston Prezidenti BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasida nutq so'zladi," (29-sentabr, 2023) <https://president.uz/oz/lists/view/6679>

⁵ Daryo.uz saytidan olindi. O'zbekiston kambag'allikni qisqartirishda Xitoy tajribasidan foydalanadi. <https://daryo.uz/2023/06/13/ozbekiston-kambag'allikni-qisqartirishda-xitoy-tajribasidan-foydalanadi>



kambag'allikni kamida 2 baravarga qisqartirishda quyidagi bir qator muhim vazifalar belgilandi:

- Kambag'allikni qisqartirishda davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- Norasmiy ishlayotgan 2,5 million nafar fuqaroning bandligini legallashtirishga yordam berish orqali ularda ijtimoiy kafolat va imtiyozlardan to'liq foydalanish imkoniyatini yaratish;

- Ayollar orasidagi ishsizlik darajasini 2 baravar kamaytirish, 700 mingdan ziyod ishsiz xotin-qizlarni davlat hisobidan kasb-hunarga o'qitish. Shuningdek, ish bilan band bo'lmagan xotin-qizlarni tadbirkorlikka jalb qilish va o'zini o'zi band qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- Davlat ijtimoiy yordami va xizmatlarini ko'rsatishda mahalliy darajada ("mahallabay" tamoyili asosida) ijtimoiy ishlarni olib borish mexanizmini yo'lga qo'yish;

- Hududlar, shaharlar va tumanlar kesimida kambag'al toifadagi oilalar, ayollar va yoshlarni yagona elektron hisobga olish tizimini yaratish, kambag'allikning qayta tiklanish xavfini bartaraf etish hamda hunarmandchilik faoliyatini rivojlantirish;

- Ijtimoiy nafaqa tayinlash mezonlariga javob beradigan barcha ehtiyojmand aholining kamida 85 foizini ijtimoiy yordam dasturlari bilan qamrab olish, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar va aholi qatlamlariga, shuningdek, vaqtinchalik og'ir sharoitga tushib qolgan fuqarolarga to'g'ridan-to'g'ri davlat ijtimoiy yordamini ko'rsatish.⁶

Xulosa o'rnida, O'zbekiston kambag'allikni qisqartirish bo'yicha o'ziga xos qiyinchiliklarga duch kelmoqda va shu bilan bir qatorda belgilangan ustuvor vazifalarni bosqichma-bosqich amalga oshirish orqali istiqbollarga ham erishmoqda. O'zbekiston va Xitoyning kambag'allikni qisqartirish bo'yicha hamkorligi O'zbekistonda kambag'allik muammosini hal qilish yo'lidagi muhim qadamdir. Xitoy tajribasidan foydalanib, O'zbekiston qashshoqlikni bartaraf etish bo'yicha samarali strategiya va dasturlarni amalga oshirishga bel bog'lagan. Ushbu hamkorlik O'zbekistonning qashshoqlikni qisqartirish bo'yicha yondashuvida yangi davrni anglatadi, Xitoy esa bu kabi sa'y-harakatlar uchun namunadir.

Ammo, boshqa tomondan olib qaraganda, qabul qilingan har qanday strategiya ikki davlat o'rtasidagi iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy tafovutlarni hisobga olgan holda O'zbekistonning o'ziga xos sharoiti va ehtiyojlariga moslashtirilishi kerak. Shu bilan birga, Xitoyning kambag'allikni qisqartirish tajribasini O'zbekistonda qo'llash masalasini ko'rib chiqishda ehtiyotkorlik va puxta o'ylangan yondashuv zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Umida H., Uzbekistan Teams Up with China on Poverty Reduction. (2020). <https://thediplomat.com/2020/10/uzbekistan-teams-up-with-china-on-poverty-reduction/>
2. Temur U., Intersecting Policies: Exploring the Domestic Foundations of Uzbekistan's Changing Stance on China. OSCE Academy in Bishkek, pp. 30-31, (2023).

⁶ 2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son, lex.uz, <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>



3. China briefing team, “China-Uzbekistan: Bilateral Trade and Future Outlook,” China Briefing post, (2021) <https://www.china-briefing.com/news/china-uzbekistan-bilateral-trade-and-future-outlook/>
4. President.uz, “O‘zbekiston Prezidenti BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasida nutq so‘zladi,” (29-sentabr, 2023) <https://president.uz/oz/lists/view/6679>
5. Daryo.uz, O‘zbekiston kambag‘allikni qisqartirishda Xitoy tajribasidan foydalanadi. <https://daryo.uz/2023/06/13/ozbekiston-kambagallikni-qisqartirishda-xitoy-tajribasidan-foydalanadi>
6. Lex.uz, “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son, <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>